



## MOLIYA BOZORIDA ISHTIROK ETUVCHI INVESTITSIYA MUASSASALARINING TURLARI

**Abduxalikov Muxammadxamid G'anisher o'g'li**

*Andijon davlat texnika instituti, muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti, bank  
ishi va audit yo'nalishi 4- bosqich talabasi E-mail:  
abduxoliqovmuxammadxamid@gmail.com Tel: +998931853875*

**Annotatsiya:** *Mazkur ilmiy maqolada moliya bozorida ishtirok etuvchi investitsiya  
vositachisi , investitsiya maslahatchilari, investitsiya fondlari va depozitariylarning  
professional faoliyati yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qimmatli qog'ozlar, investitsiya vositachilari, broker, diler, aksiyadorlik  
jamiyati, investitsiya fondlari, ochiq fond, yopiq fond, investitsion xatar, depozitariy.*

**Abstract:** *This scientific article discusses the professional activities of investment  
intermediaries, investment advisors, investment funds, and depositaries operating in the  
financial market.*

**Keywords:** *Securities, investment intermediaries, broker, dealer, joint-stock company,  
investment funds, open-end fund, closed-end fund, investment risk, depository.*

Investitsiya muassasalari — bu qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni  
o'zining asosiy faoliyati sifatida amalga oshiradigan va qimmatli qog'ozlar bozorida  
professional ishtirok etuvchi subyektlardir. Ular tarkibdan investitsiya vositachisi  
(broker), investitsiya maslahatchilari, investitsiya fondlari va depozitlarni o'z ichiga  
oladi.

### Investitsiya vositachisi

Investitsiya vositachilari (broker-dilerlar) fond bozorining eng yirik va tajribali  
professional qatlamin tashkil etadi. Broker — bu yuridik shaxs bo'lib, u mijoz bilan  
tuzilgan vositachilik yoki topshiriq shartnomasiga, shuningdek, berilgan ishonchnomaga  
asosan, mijoz nomidan qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar tuzadi. Mijozlar tomonidan  
brokerga bitimlar tuzish uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlar va pul mablag'lari,  
shuningdek, broker tomonidan mijoz bilan tuzilgan shartnomalarga asoslangan holda  
olingan aktivlar Markaziy depozitariyda va bankdagi alohida hisobvaraqa saqlanishi  
lozim. Agar mijoz bilan tuzilgan shartnomada bu ko'zda tutilgan bo'lsa, broker mijozning  
pul mablag'laridan o'z manfaatini ko'zlab foydalanishi mumkin, biroq bu mablag'lar  
topshiriq shartlariga muvofiq ishlatalishi yoki mijozning talabiga binoan qaytarilishi  
kafolatlanishi kerak.

Broker quyidagi majburiyatlarga ega:

- mijozning so'rovi asosida topshiriq bajarilishi haqida axborot taqdim etishi;
- topshiriq bajarilgach, amal qilish muddati tugamagan ishonchnomani qaytarishi  
va kerak bo'lsa, hisobot hamda tasdiqlovchi hujatlarni taqdim etishi;



- mijoz sotilishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlarni brokerga 5 ish kunida topshirishiga ishonch bo'lmasa, ularni sotish bo'yicha shartnoma tuzmasligi;
- bitim bajarilgach yoki topshiriq muddati tugagach, mijozga bitim tuzilganmi yoki yo'qmi va uning natijalari haqida zudlik bilan xabar berishi.

#### Investitsiya maslahatchilari

Investitsiya maslahatchisi — bu qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq masalalar yuzasidan, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilarining holatini tahlil qilish hamda istiqbolini belgilash bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxsdir. Shuningdek, bu tashkilotlar qimmatli qog'ozlar bozorida ishlovchi mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini ham amalga oshiradi.

Investitsiya maslahatchilari quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish konsepsiyanini ishlab chiqish, emissiya risolasini tayyorlash va uni tegishli davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazishda ko'maklashish;
- qimmatli qog'ozlar bozorida ishlash uchun mutaxassislarni o'qitish va qayta tayyorlash;
- emitentlar va investitsiya tashkilotlariga fond bozoridagi faoliyati yuzasidan maslahatlar berish, shu jumladan kadrlar tanlash, kontragentlar bilan ishlash va aksiyadorlar yig'ilishini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar;
- bozor ishtirokchilariga qimmatli qog'ozlar bozoriga oid qonunchilik bo'yicha maslahatlar berish.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda investitsiya maslahatchilari sarmoyadorlarga muayyan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotish bo'yicha bevosita tavsiya bera olmaydi. Ular faqatgina sarmoyadorlar mustaqil qaror qabul qilishi uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etadi.

#### Investitsiya fondlari

Investorlarning mablag'larini jalb etish va ularni amaldagi qonunchilikka muvofiq tarzda qimmatli qog'ozlar, boshqa investitsiya aktivlari hamda bank hisobvaraqlari va omonatlarga yo'naltirish maqsadida aksiyalar chiqaruvchi yuridik shaxs – bu ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilgan investitsiya fondidir.

Bunday fond boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga o'zgartirilishi mumkin emas. Investitsiya fondini birlashtirish, qo'shib yuborish, bo'lish yoki ajratib chiqarish kabi harakatlar faqat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Agar investitsiya fondining professional faoliyat yuritish uchun berilgan litsenziyasi bekor qilinsa yoki muddati tugasa, u holda fond belgilangan tartibda yopiladi. Investitsiya fondlari ikki turga bo'linadi: ochiq va yopiq.

Ochiq fondlar aksiyalarni sotib olish majburiyati bilan muomalaga chiqaradi, ya'ni investorlar istagan vaqtda o'z aksiyalarini pul yoki mulkka aylantira olishlari kerak, bu holat fond ustavida belgilangan bo'lishi zarur.



Yopiq fondlar esa aksiyalarni sotib olish majburiyatisiz chiqaradi. Fondlar tomonidan investitsion xatarlarni kamaytirish maqsadida ayrim faoliyat turlari qonun bilan taqiqlangan. Jumladan, investitsiya fondi ayrim operatsiyalarni amalgalash oshirolmaydi. Masalan, qimmatli qog'ozlar, opsiyalar va fyucherslar xarid qilish, turli kafolatlar berish, mol-mulkni garovga qo'yishdan tashqari boshqa investitsion faoliyat bilan shug'ullanish.

### Depozitariylar

Depozitariy — bu yuridik shaxs bo'lib, u qimmatli qog'ozlarni saqlash, ularga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va tasdiqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. O'zbekiston hududidagi depozitariylar tizimi Markaziy depozitariyni va unda vakillik hisobvaraqlariga ega bo'lgan boshqa depozitariylarni o'z ichiga oladi.

Bu tizimdagagi barcha operatsiyalar amaldagi qonunchilikka muvofiq tasdiqlangan depozitar operatsiyalar standartlari asosida amalgalash oshiriladi. Hozirgi kunda dunyoda naqdsiz (elektron shakldagi) qimmatli qog'ozlarni chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Depozitariylar orqali yuritiladigan naqdsiz hisob-kitoblar kompyuterlashtirilgan ro'yxatlar asosida amalgalash oshirilib, qimmatli qog'ozlarni moddiy shaklda joylashtirish zaruratini bartaraf etadi. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, aynan depozitariylar hisobga oladi. Ular o'z mijozlarining (deponentlarning) hujjatsiz qimmatli qog'ozlariga bo'lgan huquqlarini Markaziy depozitariydagi vakillik hisobvaraqlari orqali yuritadi. Shuningdek, hujjatlari qimmatli qog'ozlarni saqlab, ularga bo'lgan huquqlarni ham hisobga oladi.

Depozitariylar quyidagi xizmatlarni bajaradi:

- shaxslarni qimmatli qog'ozlarni saqlash va hisobga olish qoidalari bilan tanishtiradi;
- saqlovga olingan qimmatli qog'ozlarning yaxlitligini ta'minlaydi;
- har bir deponentning qimmatli qog'ozlarining miqdori va nominal qiymatini aniq hisobga oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Moliya bozori: Darslik / J.R. Zaynalov, E.N. Xodjayev, B.SH. Xusanov, N.X. Ruzibaeva va boshq. T.: «Iqtisod-Moliya», 2020. -- 316 b.
2. Shoxa'zamiy Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Darslik.T.: Fan va texnologiya, 2012. 444 b.
3. Moliya bozori. Sh.Sh.Shoha'zamiy , K.Ismoilov , Sh.Q.Fozilchayev, J.I.Karimqulov. T.: «ILM ZIYO», 2014. 232 b.